

MEDIA MAKONIDA JURNALISTIKANING IJTIMOIIY VA AXLOQIY JIHATLARI

Zaripova Gulrux Nazirjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Unversiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jurnalistikaning ijtimoiy va axloqiy jihatlari ko'rib chiqilgan bo'lib, jurnalistning xolislik va haqqoniylik tamoyillariga rioya etilishi va uning nazariy jihatlari ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Etika, axloq, jurnalist, xolislik, haqqoniylik.

Jurnalistning kasb etikasi tushunchasi sifatida jahon jurnalistikasida uzoq tarixga ega. U amaliy jihatdan qanchalik ko'p o'rganilgan bo'lsa, nazariy nuqtai nazardan ham shu qadar atroflicha va batafsil tadqiq etilgan. Biroq barcha fanlarda bo'lgani singari davr o'tgani sayin muammoning yangidan-yangi qirralari namoyon bo'laveradi, mutaxassislar, shuningdek amaliyotchilar esa uni o'rganishda, tadqiq etishda davom etaveradilar.¹ Jurnalistning asosiy oldidagi shaxs sifatida namoyon bo'lishi ham aslida uning axloqiga bog'liqdir.

Jurnalistikaning axloqiy standartlari esa jurnalist yoki ommaviy axborot vositalari tahririyati ixtiyoriy ravishda qabul qiladigan qoidalar to'plami. Axloqiy me'yorlar har qanday o'zini hurmat qiladigan tahririyat ham ega bo'lishi kerak bo'lgan axborot sifati standartlarini organik ravishda to'ldiradi.² Ushbu standartlarning barchasi iste'molchiga ma'lum bir masala to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni aniq yetkazishga imkon beradi. Ya'ni, jurnalistlar, ularning fikriga ko'ra, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmagan ma'lumotlarni tarqatishdan bosh tortishga urinmoqdalar³.

Masalan, bu voqea ishtirokchilarining etnik, diniy, mintaqaviy mansubligi va masalaning mohiyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan boshqa jihatlar haqida ma'lumot bo'lishi mumkin. Ammo bu faqat ushbu ma'lumot material kontekstida ahamiyatga ega bo'lmaganda.

Masalan, ba'zi bir jinoyatlarni sodir etgan shaxslar haqida keraksiz tafsilotlarni bermaslik bo'yicha tavsiyalar mavjud.

Ba'zi nashrlarda ularning ismi va familiyalari ham tilga olinmaydi, balki shunchaki gumon qilinuvchilar yoki jinoyatchilarning bosh harflari berilgan. Birinchidan, bunday ma'lumotlar ushbu odamlarning qarindoshlariga, shu jumladan ularning voyaga yetmagan farzandlariga ma'naviy zarar yetkazishi mumkin.

¹Xurshid Do'stmuhammad., Xalqaro jurnalistikada gumanitar huquq va kasb etikasi. (O'quv qo'llanma) Toshkent-2011.

² <https://school.cabar.asia/ru/video/marat-mamadshoev-jetika-v-zhurnalistiche/>

³ <https://school.cabar.asia/ru/video/marat-mamadshoev-jetika-v-zhurnalistiche/>

Ikkinchidan, bu ismlar va tafsilotlar o'quvchiga foydali ma'lumot bermaydi. Bunday holda, axloqiy me'yorlar odamlarga ma'lumotni yaxshiroq singdirishga imkon beradi. Shuningdek, jurnalist o'zi tarqatayotgan axborotning ishonchliligini tekshirish va xolis axborot taqdim etish jurnalistning majburiyatidir. Jurnalist haqqoniyligiga ishonch hosil qilgan axborotnigina tarqatadi va sharhlaydi (kamida ikkita mustaqil manba orqali axborotni tekshirib ko'rishi tavsiya etiladi).

Ishonchsiz va dalillarga asoslanmagan axborot tarqatgan taqdirda jurnalist zudlik bilan o'z xatosini tan olishi, uzr so'rab, xatosini tuzatish chorasini ko'radi.

Jurnalist fikr va nuqtai nazar xilma-xilligini hurmat qiladi. Bundan tashqari jurnalist jismoniy yoki yuridik shaxslarning axborot taqdim etishni rad etish yoki taqdim etishdan tiyilish huquqini tan oladi.

Jurnalist axborot manbaining ruxsatisiz ma'lumotlarni oshkor qilmasligi, axborotdan g'arazli yoxud uchinchi shaxs manfaatlarini ko'zlab foydalanmaydi.

Jurnalist maxfiy yo'l bilan olingan axborot manbaiga nisbatan kasb sirini saqlaydi. Jurnalistdan axborot manbani oshkor etishga majburlashga hech kimning haqqi yo'q.⁴

Jurnalist kasb etikasi talablari va me'yorlari buzilish holatlarini kuzatish, tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish maqsadida ommaviy axborot vositalari bo'yicha Jamoatchilik kengashi tuziladi. Jamoatchilik kengashi nizomi O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi konferensiyasida tasdiqlanadi.

Jamoatchilik kengashi yetti kishidan iborat tarkibda besh yillik muddatga O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi konferensiyasida saylanadi.

Jamoatchilik kengashi:

— milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan (tarqatilgan) materiallarni jurnalistning kasb etikasi me'yorlari nuqtai nazaridan o'rganadi, tahlil qiladi, baholaydi, xulosa chiqaradi;

— jurnalistlik faoliyati bilan bog'liq bahsli holatlarga oydinlik kiritilishida yordamlashadi;

— Kodeks me'yorlariga rioya etilmaslik holatlari yuzasidan taqdim etilgan murojaatlarni ko'rib chiqadi va qaror qabul qiladi;

• jurnalist kasb etikasiga taalluqli boshqa masalalarni jamoatchilik e'tiboriga havola etadi.

Ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan Jamoatchilik kengashining qarori Ommaviy axborot vositalarida chop etiladi.

Jamoatchilik kengashi qarori jurnalistni intizomiy, ma'muriy yoki boshqa turdagi javobgarliklarga tortish uchun asos hisoblanmaydi, u tavsiya xususiyatiga ega⁵.

⁴ <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-zhurnalistlarining-kasb-etikasi-kodeksi>

⁵ <https://journalist.uz/oz/n/14107>

Turli mamlakatlarda professional jurnalistikaning axloqiy tamoyillari yoki zamonaviy jurnalistlarning “axloq kodeksi” turli hujjatlarga asoslangan. Masalan, O‘zbekistonda jurnalistikaning aksariyat axloqiy masalalari O‘zbekiston Milliy elektron ommaviy axborot vositalari uyushmasi nizomida aks ettirilgan va hozirda O‘zbekiston jurnalistlar professional faoliyati kodeksining loyihasi ishlab chiqilgan.

Dunyoning turli mamlakatlarida mavjud, 400 ming nafar jurnalistni qamrab olgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar YUNISKO shafeligida 1978 yilda o‘tkazilgan konsultativ uchrashuvlardan so‘ng birlashdi. Parij va Pragada bo‘lib o‘tgan to‘rtinchi maslahat uchrashuvida “axborot va kommunikatsiya ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning ijtimoiy mas‘uliyati oshganini hisobga olgan holda uning milliy va xalqaro miqyosda tutgan o‘rni” aniq belgilandi. Yakuniy hujjatda jurnalistlar kasbiy etikasining asosiy tamoyillari naql etilgan. Birinchi va ikkinchi o‘rinda – “Fuqarolarning ishonchli ma‘lumotlarga ega bo‘lish huquqi” va “Voqealarni xolis yoritish – jurnalistning burchi”, uchinchi o‘rinda esa jurnalistning ijtimoiy javobgarlik tamoyillari joy olgan⁶.

Jurnalist materialida faktlar ustida ishlash, ularni baholash ijodkorning asarni yaratishdagi zalvorli mehnatining eng so‘nggi, aytish mumkinki, murakkab bosqichidir. Bu jarayonda asosiy kasbiy etika tamoyillari bo‘lmish haqqoniylik, xolislik (betaraflik) va so‘z erkinligiga qat‘iy amal qilish muhim zaruriyat sifatida baholanadi hamda jurnalistika nazariyasida qilingan ko‘pgina tadqiqotlarda bu zaruriyatni har tomonlama ta‘minlash usullari borasida turlicha qarashlar ilgari suriladi. Jumladan, Gay Tachmen o‘zining “Objectivity as Strategic Ritual: An Examination of Newsmen’s Notion of Objectivity” nomli tadqiqotida faktlarga aniqlik kiritish va xolislikni ta‘minlash uchun axborotning formal atributlari sifatida qaraladigan to‘rt strategik prosedurani ilgari suradi:

- ziddiyatli ehtimollarni tayyorlash;
- yordamchi dalillar tayyorlash;
- axborotni to‘g‘ri (munosib) ketma-ketlikda tuzish;
- ko‘chirma va qo‘shimchalarni mohirona (mulohaza bilan) qo‘llash⁷.

Xulosa qilib aytganda, bugungi axborot almashuv jarayonlari globallashtirilgan davrda auditoriyaga xolis va to‘g‘ri axborot berish, har bir jurnalist uchun muqaddas burch sanalishi zarur. Bu esa ularning kasbiga bo‘lgan sadoqatini va kasb etikasining bir bo‘lagi sifatida belgilab beradi. Qolaversa, jurnalist jamiyat taraqqiyoti, xalq ongini o‘shishiga muhim hissa qo‘shgan bo‘ladi. Agar jurnalistlar, o‘z xolisligiga ishonch xosil qilmasa, turli dalillarni yonma-yon keltirish va xolis axborotni saralab olishni

⁶ Jurnalistikada media va axborot savodxonligi: jurnalistlar va media sohasida ta‘lim beruvchilar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019.

⁷ G. Tachmen. Kurs. Adab.

auditoriya ixtiyorlariga topshirishlari ham mumkin. Bu ham jurnalistning ma'lum bir darajadagi etikalaridan biridir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xurshid Do'stmuhammad., Xalqaro jurnalistikada gumanitar huquq va kasb etikasi. (O'quv qo'llanma) Toshkent-2011.
2. Jurnalistikada media va axborot savodxonligi: jurnalistlar va media sohasida ta'lim beruvchilar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent-2019.
3. G. Tachmen. Kurs. Adab.
4. <https://school.cabar.asia/ru/video/marat-mamadshoev-jetika-v-zhurnalistike/>
5. <https://school.cabar.asia/ru/video/marat-mamadshoev-jetika-v-zhurnalistike/>
6. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-zhurnalistlarining-kasb-etikasi-kodeksi>
7. <https://journalist.uz/oz/n/14107>